

**INSON TABIATNING ENG GO'ZAL ESTETIK HODISASI SIFATIDAGI
TADQIQOT OBYEKTI**

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Temirova Matluba Karim qizi

G-mail:matlubatemirova95@gmail.com

Tel:+99899-679-17-36

Termiz tumani 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Xasanova Zarina Gulbayevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson tabiatning eng go'zal estetik hodisasi sifatidagi tadqiqot obyekti ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik tarbiyani takomillashtirish jarayonida inson va unga aloqador jihatlari bilan birga yoritish masalasi ustuvor maqsad qilib olingan. Maqolada inson estetik tarbiya obyekti sifatida ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Inson, boshlang'ich sinf, tarbiya, estetika, qiziqish, atrof-muhit, o'quvchi, dars, tabiat, go'zallik, fojea, mukammallik.

Darhaqiqat, tabiat estetik qadriyat bo'lib, u ekologik inqiroz sharoitlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlar ongida tabiatga estetik munosabatda bo'lishni rivojlantirish unga nisbatan ongli va ijodiy munosabatda bo'lishni mustahkamlaydi.

Fojelik-go'zallikning, mukammallikning xushro'ylikka aylanishi. Tabiatdagi halokatli hodisalar (bo'ron, qyun, vulqon otilishi, yer qimirlashi, suv toshqinlari) ham fojeadir. Biroq tabiatning bu hodisalaridan ham estetika mazmuni mavjud, buyuk va xashamatli stixiya qudrati, faollik, harakat va o'zgartiruvchanlik barqaror dialektikasi.

Tabiatning estetik qiymati shubxasiz mikroorganizmlardan tortib to ulkan landshaftlarga qadar betakror qimmatga ega. Shuni esda tutish lozimki, tabiatning har bir ijodi - "asar" u takrorlanmas va agar u yo'q bo'lib ketsa, to'ldirib bo'lmazdir. Tabiatning yaratganini tabiiy holatini, uning simmetriyasini buzsak, o'zimizni go'zallikdan mahrum qilamiz, o'z xayotimizga raxna solamiz.

Tabiatdagi eng go'zal mavjudot insondir. Uning tana tuzilishi materiya taraqqiyotining eng yuksak bosqichidir. Afsuski, inson shu paytga qadar tabiatning estetik go'zal hodisasi sifatida tadqiqot obyekti bo'lmagan. Insonning jismoniy go'zalligi bexad turli tuman va boydir (masalan, irqiy, milliy, etnik tiplar, tashqi qiyofaning individual xususiyatlari). Biroq bu go'zallikni xayotiy namayon bo'lishi va hayotiy xarakterlarisiz, ruxiy va ma'naviy; Bu jarayonni optimallashtirish tabiat estetikasiga uning ekologiyasi va unga insonning ma'naviy axloqiy munosabatda bo'lishi bilan aloqadorligi qiziqishini shakllantirishning asoslarini, mohiyatini, mexanizm va modelini ko'rib chiqish va kuchaytirishni talab qiladi.

Keyingi tizimda: ijobiy munosabat qiziqishni chuqurlashtirish va mustahkamlash barqaror qiziqish ehtiyoj. Mustaqil hissiy bilish faoliyatida ehtiyojni shakllantirish, buning uchun materialni o'zlashtirishning turli usullarini egallash.

Psixologik omilga o'smir yoshi xususiyatlariga, bilish materialining hissiy yuklamasiga, tabiatni hissiy idrok etishga, mashg'ulotlarning hissiy muhitiga, bilimlarni egallashning muhim omili hislarga qaratilishi kerak. Bu yerda sharqning mashhur pedagog olimi Farobiyning quyidagi fikrini keltirish o'rinli bo'lur edi: "Hissiyot - bu inson qalbining bilimlarini egallashida yordam beradigan vositadir" ("Mantiq to'g'risidagi traktatga kirish so'zidan").

Bilish yuklamasi, malaka va ko'nikmalar , ularni takomillashtirishni tajribiy murakkablashuvi. Foydalanish zarur bo'lgan omillar:

- jonli tabiat;
- yorqin, unutilmas, yodda qoladigan material;
- tasviriy san'atning yuksak badiiyatli asarlari;
- Xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyot, ma'lumotnomalar, lug'atlar, tabiatshunoslarning qaydlari;

Ommaviy axborot vositalari, televediniya, kinomateriallar va boshqa muloqot vositalari, shuningdek, o'yin va ko'ngil ochar materiallar, shaxsiy motivlashuv va individual extiyojiy omillarni xisobga olish lozim. O'quvchilarni "o'z" qiziqishlarini chuqurlashtirish va mustahkamlash uchun ularni mustaqil ko'ngilli hissiy - bilish faoliyatiga jalb qilish. Har bir mashg'ulotga qiziqarli va o'quvchilarni qiziqtiruvchi hissiy bilish estetik ekologik tarbiyani va uni ijodiy aks ettirishga turtki bo'luvchi sabablarni kiritish lozim.

Mamlakatimiz tabiati va uning estetikasini o'quvchilarga ekologik omonlikka ehtiyojmand bo'lgan milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida taqdim etish. Muhimi, tabiat o'quvchilar tomonidan manaviy estetik qadriyat, hissiy ijodiy individual o'ziga xos: inson esa tabiatdagi eng yuksak estetik hodisa sifatida idrok etilsin. Navoiyning inson to'g'risidagi "inson Yaratuvchining eng oily va qimmatli ne'mati, tabiatning eng mukammal ijodi, degan fikrini yodga olish o'rinlidir".

Bu jarayonda o'quvchilarni tabiat go'zalligining nafaqat ekologik hodisalarga, balki insonning o'ziga ham bog'liq ekanligi to'g'risida fikrlash, xulosa yasash va hukm chiqarishga yo'naltirish zarur. Bunda obyektning "Inson! Sen tabiat shoxi bo'lib tug'ilding, biroq har qadamingni o'z vaxshiyliging bilan nishonlading. Yer shari ingraydi. Inson - go'zallik, ezgulik devi - eng birinchi dushman", degan satrlari o'quvchilar qalbini hayajonga soladi.

O'quvchilarni tabiat estetikasi va ekologik tarbiya to'g'risidagi bilimlari, muayyan ko'nikma va malakalarini mustaqil ravishda takomillashtirishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Maskur jarayonni quvvatlantiruvchi optimal mazmun, shakl, uslub, usul, vosita, sharoit va uslubiyatlar zarur. Bunday e'tibor albatta:

Tadqiqot natijalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiat estetikasiga axloqiy munosabatda bo'lish bilan o'zaro aloqadorlikda bo'lgan qiziqishni shakllantirishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiq etilayotgan jarayonni tabiatga, uning estetikasiga insonning tabiat go'zalligining gullab yashnashida tutgan o'rniga, o'quvchilar tomonidan tabiat estetikasini ko'rsatilgan omillar bilan o'zlashtirishga ichki extiyojni rivojlantirishga ijtimoiy shakllantiruvchi munosabat sifatida ko'rib chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qizi, T. M. K. (2022, November). BOSHLANG 'ICH SINFI O'QUVCHILARNI ESTETIK QARASHLARINI O'QITISHDA TABIATNING O'RNINI. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 1, No. 2, pp. 27-34).
2. Zokirov, J., & Matluba, T. (2022). ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O'RGANISHDA MATN USTIDA ISHLASH USULLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(4), 218-223.

3. XX, P. M. (2022). The Importance of Developing the Spiritual Thinking and Capacity of Primary School Students. *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*, 1(2), 6-12.
4. Qizi, T. M. K. (2022, November). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINI ESTETIK QARASHLARINI SHAKLLANTIRISH. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 1, No. 2, pp. 26-31).
5. Boymatovna, M. M. T. (2023). O'QUVCHILARNING ESTETIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING AHAMIYATI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 3(1), 30-33.
6. Qizi, T. M. K. (2023). ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ. *ТА'ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 3(1), 56-60.
7. Temirova Matluba Karim Qizi. (2022). 1-4-SINFDA ESTETIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*, 1(2), 179–185.
8. **Boynazarova , N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA BUGUNGI KUNDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH. Interpretation and Researches, 2(1). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/960>**
9. Erdanova Zamira 2023/5/30 AL-HAKIM AT-TERMIZIY QARASHLARIDAN OLIY TA'LIMDA FOYDALANISHNING AHAMIYATI *Journal of Universal Science Research* 1, 5, 1466-1471